

## **2018 yil I yarim yilligida iqtisodiy islohotlarning borishi va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish prognoz ko'rsatkilari**

Hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish hajmi quyidagilarni tashkil etishi kutilmoqda. Xususan, 2018 yilning I yarim yilligida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'ati 104,5 foizni, xalq istemol tovarlari ishlab chiqarish o'sish ko'rsatkichi 103,3 foizga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish natura ko'rinishida o'sish sur'ati: un ishlab chiqarish 100,0 foizni, omixta yem 100,1 foizni, non va non mahsulotlari ishlab chiqarish 108,1 foizni hamda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish 116,1 foizga teng bo'lishi kutilmoqda.

2018 yilning I yarim yilligida "Qoraqalpoqdonmahsulotlari" va "Qashqadaryodonmahsulotlari" AJ tomonidan Turkiya texnologiyasi asosida tegirmon sexlari modernizatsiya qilinib, ishga tushirildi.

"Uchqo'rg'on don mahsulotlari", "Oxangaron don" va "Koson don" korxonalari tomonidan baliqchilik, parrandachilik va chorvachilik ho'jaliklariga uchun Rossiya texnologiyasi asosida estrudirlangan omixta yem ishlab chiqarish sexlari qurib ishga tushirildi.

"Asakadonmahsulotlari" AJ tomonidan chorvachilik xo'jaliklari uchun granulangan (ekstrudirlangan) omixta yem yetkazib berish maqsadida Turkiya texnologiyasi asosida omixta yem sexi modernizatsiya qilinib, ishga tushirildi.

"Do'stlikdonmahsulotlari", "Asakadonmahsulotlari" va "Oqtosh don" (Bekobod un) AJlar tomonidan aholiga sifatli va uzluksiz non va non mahsulotlari yetkazib berish maqsadida Germaniya, Rossiya va Turkiya texnologiyasi asosida kunlik quvvati 2 tonnalik non sexlari qurib ishga tushirildi.

"Surxondaryodonmahsulotlari" AJ kunlik quvvati 300 tonnalik yangi tegirmon sexining texnologik uskunalari Turkiyaning "Erkan Makina" kompaniyasi tomonidan to'liq keltirildi, montaj ishlari olib borilmoqda. Joriy yil 3 choragida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.


"Dunyo-M" AJ kunlik quvvati 300 tonnalik tegirmon sexining texnologik uskunalari Turkiya kompaniyasi tomonidan to'liq keltirilgan. Demontaj ishlari yakunlanib, montaj ishlari olib borilmoqda. Joriy yil III choragida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

"Andijondonmahsulotlari" AJ kunlik quvvati 250 tonnalik tegirmon sexining texnologik uskunalari Ukrainaning "Mogilev-Podolskiy" kompaniyasi tomonidan keltirilmoqda. Demontaj ishlari boshlangan, montaj ishlari iyul oyi boshlanadi va loyiha ishga tushiriladi.


"Bekobod un zavodi" kunlik quvvati 50 tonnalik tegirmon sexining texnologik uskunalari Ukrainaning "Mogilev-Podolskiy" kompaniyasi tomonidan to'liq keltirilgan. Montaj ishlari olib borilmoqda. Joriy yil iyul oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

"Samarqanddonmahsulotlari" AJ kunlik quvvati 250 tonnalik tegirmon sexining texnologik uskunalari Turkiyaning "Alapala" kompaniyasi tomonidan keltirilishi boshlangan. Montaj ishlari iyun oyida boshlanadi va loyiha iyul oyida ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.


### 2014-2018 yillarda non va non mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



### 2014-2018 yillarda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



## 2014-2018 yillarda omuxta yem mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



## 2018 yil birinchi yarim yilligida kutilayotgan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'sish sur'ati %
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	104,5
Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish	103,3
Un	100,0
Omuxta yem	100,1
Non va non mahsulotlari	108,1
Makaron mahsulotlari	116,1